

Bekzod MAMATQULOV,
 PhD, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
 E-mail: b_mamatqulov@mail.ru
 Tel: 91 213 9494

QarDU professori, t.f.d., G.Mo'minova taqrizi asosida

O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy)

Annotatsiya

O'zbekistonda sanoat korxonalarining tashkil etilishi va taraqqiy etishining o'ziga xos tarixiy xususiyatlari mavjud. O'zbekiston janubiy viloyatlarida sanoat korxonalarining qurilishi va hududlar sanoatining ixtisoslashuvi jarayonining tarixiy tahlili, sanoatning yangi tarmoqlarining yuzaga kelishi hamda rivojlanishi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, sanoat, fabrika, zavod, gaz, kimyo, paxta sanoati, qurilish materiallari, elektr stansiyalar, un zavodlari, oziq-ovqat. to'qimachilik.

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССА СОЗДАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ЮЖНЫХ ОБЛАСТЯХ УЗБЕКИСТАНА И ПРОМЫШЛЕННОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ РЕГИОНОВ (1930-1950 гг.)

Аннотация

Создание и развитие промышленных предприятий в Узбекистане имеет свои исторические особенности. На научной основе анализируются исторический анализ, возникновение и развитие процесса строительства промышленных предприятий и процесса региональной специализации промышленности в южных регионах Узбекистана.

Ключевые слова: Узбекская ССР, промышленность, фабрики, заводы, газовая, химическая, хлопчатобумажная промышленность, стройматериалы, электростанции, мукомольные заводы, пищевая промышленность. текстиль.

HISTORICAL ANALYSIS OF THE PROCESS OF ORGANIZATION OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND SPECIALIZATION OF THE INDUSTRY OF REGIONS IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN (1930-1950)

Annotation

Uzbekistan has its own historical features of the organization and progress of industrial enterprises. The historical analysis, emergence and development of the process of construction of industrial enterprises and the process of regional industry specialization in the southern regions of Uzbekistan are analyzed on a scientific basis.

Key words: Uzbekistan SSR, industry, factory, plant, gas, chemical, cotton industry, building materials, power stations, flour factories, food. textile.

Kirish. Hozirgi tezkor va shiddatli zamonda jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo'lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma'no-mazmuni va xarakteri tubdan o'zgardi. Jahon mamlakatlarida sanoatning jadal taraqqiy etishi, davlatlararo iqtisodiy munosabatlar sohasining chuqurlashishi, xalqaro miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti faoliyati va soha tarixiga qiziqish ortib, u bilan bo'lgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Jahonning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy muassasa hamda oliy o'quv yurtlarida sanoat sohasi tarixi va uning yangi tarmoqlari bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda. Hozirgi kunda qo'yilayotgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan uning tarixiga ham bog'liq hisoblanadi.

O'zbekiston SSRda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi jarayonida, ayniqsa janubiy viloyatlarda ayrim muammolar va oqibatlar yuzaga keldi. Sanoat korxonalarini viloyatlar bo'yicha joylashtirishda doimiy ravishda nomuvofiqliklar mavjud bo'ldi. Masalan, 1927 – 1928-yillarda O'zbekiston hududida jami 191 ta yirik sanoat korxonasi bo'lib, ularni viloyatlar bo'yicha taqsimlaganda quyidagi holat bilan izohlanadi. Toshkent, Farg'ona viloyatlarida sanoat korxonalarini ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa, Samarqandda 29 ta, Andijonda 19 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritgan. Yirik sanoat korxonalarini eng kam bo'lgan hududlar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri keldi.

Respublika sanoat korxonalarining asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Samarqand hamda Andijon viloyatlarida joylashtirildi. Bu borada Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSR eng orqada edi. Masalan, Surxondaryo viloyatida bu davrda faqat 1 ta, Qashqadaryoda 2 ta sanoat korxonasi faoliyat olib bordi [1, 2].

1927-1928-yillarda O'zbekistondagi sanoat korxonalarining soha bo'yicha taqsimlanishida ham o'ziga xoslikni ko'rish mumkin. Yirik sanoat korxonalarining tarkibida paxta tozalash zavodlari 43 ta, qurilish materiallari sanoati 17 ta, elektr stansiyalar va un zavodlari 16 tadan, yog' zavodlari 7 ta, metalni qayta ishlovchi korxonalar 5 tani tashkil etgan.

O'zbekistondagi sanoat korxonalarini orasida paxta tozalash, qurilish materiallari, elektr stansiyalar, un zavodlari hissasi yuqori edi. Respublikada mavjud 191 ta yirik sanoat korxonasining 43 tasi paxta sanoatiga tegishli bo'ldi. Uning 20 tasi Farg'ona viloyatida joylashtirildi. O'zbekiston sharoitida ba'zi oziq-ovqat sanoati korxonalarini ko'paytirishga imkon bo'lsa-da, ammo turli bahonalar ro'kach qilinib sohada yangi korxonalar barpo etilmadi. Respublika miqyosida faqat 3 ta konserva zavodi mavjud edi.

1925 – 1928-yillarda sanoat mahsulotlari mulk egaligi shakllari nuqtai nazaridan tahlil etiladigan bo'lsa, 1925 – 1926-yillarda davlat sanoati 97,2 foiz, kooperativ sanoati 1,5 foiz, xususiy sanoat esa 1,3 foizni tashkil etgan. 1927 – 1928-yillarda sanoat mahsulotlari mulk egaligi shakllaridan davlat sanoati 96,3 foiz, xususiy sanoat 0,4 foizni tashkil etib kamayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, bu davrda kooperativ sanoati 3,3 foizni tashkil etdi [2, 3].

Tahlil va natijalar. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari davlat korxonalarini hisobiga to'g'ri keldi. Kooperativ va xususiy sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishdagi hissasi 2 foizdan nariga o'tmadi. Respublikadagi asosiy sanoat korxonalarini Ittifoq tasarrufida bo'lib, respublika va mahalliy hokimiyat tasarrufidagi korxonalar kam bo'ldi. Masalan, 1926-1927-yilda O'zbekiston sanoat korxonalarining 76,4 foizi Ittifoq tasarrufida bo'lsa, 1927-1928-yilda ularning salmog'i 78,4 foiz bo'ldi. Respublika ko'rsatkichi esa bu yillarda pasayib borib, 16,8 foizdan 14,1 foizga tushdi. [3, 219].

Shuningdek, sanoat korxonalarini ham kamayib bordi. 1926-1927-yili faoliyat olib boruvchi sanoat korxonalarini soni 175 tadan 1927-1928-yilda 165 taga tushadi. Bu korxonalariga ishchilar soni o'rtacha 77-80 kishidan to'g'ri keldi. Ammo, Toshko'mir sanoatida turli sabablar tufayli bir korxonaga to'g'ri keladigan ishchilar soni kamayib bordi. Masalan, 1926-1927-yilda bu 83 kishi bo'lsa, 1927-1928-yilda 80 kishiga tushdi. O'zbekistonda 1926-yili 500 va undan ziyod ishchi hamda xizmatchilar ishlaydigan korxonalar soni 3 ta bo'lsa, 1928-yili ular soni 6 taga ko'paydi.

1932-yil O'zbekistonda sanoat korxonalarini va ishchilar soni arxiv manbalariga asoslanib o'rganilganda, ular Ittifoqqa qarashli sanoat korxonalarini, Respublikaga qarashli sanoat korxonalarini va mahalliy sanoat korxonalariga ajratilib, asosan Respublikaga qarashli sanoat korxonalarining ulushi yuqori bo'lib, jami ishlab chiqariladigan mahsulotning yarmidan ko'pini ishlab chiqargan.

Ishchilar soni yakka dehqonlar, batraklar, kустarlar, kosiblar va mamlakatning boshqa hududlaridan kelgan kishilar hisobiga kuchayib bordi.

O'zbekistonda 1925-1926-yillarda sanoatda 11,125 kishi, 1926-1927-yillarda 14513 kishi, 1927-1928-yillarda 13250 kishi faoliyat olib bordi. Shuningdek, bir ishchiga bir kunda ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 1925-1926-yillarda 73,1 cherv. rubl, 1926-1927-yilda 65,5 cherv. rubl, 1927-1928-yilda 72,7 cherv. rublni tashkil qildi. Demak, Sovet davri adabiyotlarida sanoat ishlab chiqarish yildan yilga o'sib borilganligi qayd etiladi, arxiv hujjatlaridagi raqamlar buning aksini ko'rsatadi. Bu davrda ishchilarning o'rtacha haqi 73-75 cherv. rublni tashkil qildi. [4, 184].

O'zbekiston sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1925-1926-yili 178,3 mln. rubl, 1927-1928-yili 239,8 mln. rublni tashkil qildi. Ammo, ishlab chiqarish rejalari yuqori darajada belgilanganligi tufayli ko'p hollarda bajarilmay qoldi. Masalan, 1928-1929-yillarda O'zbekistonda neft qazib olish 24 foiz, sement 45,6 foiz, ko'n zavodi 42 foiz, poyafzal fabrikasi 25 foiz, bosmaxonalar 37,5 foiz rejanı bajardi. Davlat va partiya anjumanlarida sanoat sohasidagi vazifalar Ittifoq manfaatlariga muvofiq tarzda belgilab berildi [5, 302].

Masalan, O'zbekiston sovetlarning II syezdida sanoat sohasida quyidagi vazifalar ilgari surildi:

birinchidan, to'qimachilik sanoatini tashkil etish;

ikkinchidan, O'zbekiston tabiiy boyliklaridan unumli foydalanish va qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi yangi sanoat korxonalarini tuzish;

uchinchidan, elektrlashtirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

to'rtinchidan, foydali qazilma boyliklarini ilmiy o'rganish, sanoat yo'li bilan ularni qazib olish;

beshinchidan, qishloq xo'jaligi inventarlarini ishlab chiqarish bo'yicha sanoat tarmog'ini rivojlantirish. [6, 170].

O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonida hududda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi bo'yicha o'zgarishlar ham bo'ldi. Buning sababi ushbu tarmoq mahsulotlariga nisbatan ehtiyojning yuzaga kelganligi va Ittifoq manfaatlaridan kelib chiqib, hududlarni sun'iy ravishda ixtisoslashtirilganligi bilan izohlanadi. Sanoatlashtirish siyosatining salbiy oqibatlari bilan birgalikda, mazkur jarayonning natijasi sifatida hududlarning rivojlanishi va bugungi kundagi viloyatlarning sanoat sohasidagi ixtisoslashuvi hamda ulardagi ishlab chiqarishning taraqqiy etishining ildizi sifatida ham ta'kidlash joizdir.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanishida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mintaqalarni integratsiyalashgan va muvozanatli rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali foydalanish kabi omillar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari deb belgilandi.

Muhokama. Sanoatlashtirish siyosatining natijasi sifatida, shu soha olimlarining fikriga ko'ra, bugungi kunda hududlarda mavjud faoliyat turlari bo'yicha o'tkazilgan hisob – kitoblar shahar va tumanlar sanoatida chuqur ixtisoslashuv, ya'ni klasterlar tuzishning yuqori salohiyati mavjudligi va shakllanganligini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatining tuman va shaharlari misolida quyidagi tahlil sifatida quyidagicha izohlanadi:

- neft va tabiiy gaz qazib olish (G'uzor, Muborak, Nishon tumanlari) hamda tog'-kon sanoati bilan bog'liq faoliyatga (Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlari);

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga (Qarshi va Shahrisabz shaharlari, Qamashi, Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz tumanlari);

- teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishga (Qarshi shahri, G'uzor va Yakkabog' tumanlari);

Viloyatda sanoatning tog'-kon xom ashyosini qazib olish, oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo mahsulotlarini, qurilish materiallarini, mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi asosan boy xom ashyo bazasi, foydali qazilmalar konlari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari mavjudligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra Shahrisabz, Termiz va Xiva shaharlari shaharlarda sanoatning rivojlanganlik darajasi bo'yicha guruhlanganda, sanoat rivojlanishi past darajada bo'lgan shaharlar sifatida izohlanadi. Bu ham sanoatlashtirish siyosatining asorati sifatida mazkur jarayonning salbiy oqibati sifatida baholanadi. Chunki 1925-1941-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari sanoat korxonalarining faoliyati hamda soni jihatidan oxirgi o'rinlarda edi. [7, 324].

Viloyatlar kesimida sanoat ixtisoslashuvi va ishlab chiqarishdagi tarmoqlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatdiki, biz tadqiq etgan davrning natijasi va asorati sifatida bugungi kunda hududlar sanoati rivojlanishining xususiyatlarini va ixtisoslashuv jarayonlari bevosita bog'liqdir. Xususan, viloyatlar kesimida hududlar sanoatining chuqur ixtisoslashuvi jarayonining tarixi ham 1925-1941-yillardagi sanoatlashtirish siyosatining natijasi sifatida ham izohlanadi. Masalan, kimyo sanoatida 1930-1940-yillarda Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Samarqandda sanoat korxonalarini barpo etilib, hududlarning shu sohaga ixtisoslashtirilganligi ular sanoatining yetakchi tarmog'i sifatida, bu shakllangan sanoat ixtisoslashuvi viloyatlarning o'sish tayanch nuqtalari sifatida baholanmoqda.

Xulosa. Xullas, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, sanoat sohasida ham ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qaror toptirilib, yangi iqtisodiy siyosat natijasida sanoat sohasida ba'zi ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo Ittifoq sanoat yalpi mahsulotlari ulushida O'rta Osiyo respublikalarining hissasi juda past bo'ldi. Sanoatni rivojlantirishga bir tomonlama yondashuv natijasida faqat qishloq xo'jaligi bilan bog'liq yo'nalishlarini yo'lga qo'yishga e'tibor qaratildi.

ADABIYOTLAR

1. A'lamov X. O'n yil ichida sanoatimiz: Sanoatga endi ega bo'ldik; Milliy chegaralanishdan keyin sanoatimizning muvaffaqiyatlari va hozirgi holi; Elektrlash; Sanoat tuzish ishlari; Sanoatimizning istiqboli haqida // Qizil O'zbekiston.– 1927 . - 7-noyabr;
2. Yoqubov G'ulom. Sanoatimizdagi o'pirilishlarga qarshi kurashimiz! // Qizil O'zbekiston. - 1930.- 21-fevral;
3. Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996; 219 bet
4. Ziyodullayev S. Manoxin I. Sovet O'zbekistonining sotsialistik sanoati. – T., 1949. – 184 bet.
5. Mo'minov N. M. Sovetlarning O'zbekistonni sanoatlashtirish uchun kurashi. (1928 – 1932-yillar). – T., 1959. – 302 bet
6. To'xtayev A.Q. Surxondaryo viloyati an'anaviy sanoat korxonolari tarixi (1930 – 1940 yy). – Termiz davlat universiteti professor – o'qituvchilarining XXVIII ilmiy-nazariy konferensiya ma'ruzalar to'plami. – Termiz, 1996; 170 bet.
7. Ergasheva J. O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonda Qashqadaryo sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi tajribasidan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanish. – T.: “Fan”, 2000; 324 bet